

PEDAGOGIKA VA FILOLOGIK METODIKA

UO'K(UDC, УДК): 303

**INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI
O'QITUVCHILARINING LEKSIK KO'NIKMALARINI
RIVOJLANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI³⁰**

Ochilova Nilufar Nomazovna*Samarqand davlat chet tillar instituti**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent**Samarqand, O'zbekiston.*Email: nilufarochilova1983@icloud.com<https://orcid.org/0009-0006-0044-3188>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada zamonaviy innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari atroflicha tahlil qilingan. Til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'kidlab, leksik ko'nikmani nafaqat so'z tanlash va qo'llash jarayoni, balki kognitiv va nutqiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. Maqolada ekspressiv (mahsuldor) va reseptiv (idrok etuvchi) leksik ko'nikmalarining farqli xususiyatlari, ularning nutqiy muloqotdagi o'rni ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, leksik ko'nikmaning avtomatlashganlik, barqarorlik va moslashuvchanlik kabi fundamental xususiyatlari tahlil qilinib, ularning dars jarayonidagi ahamiyati ko'rsatilgan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interaktiv metodlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning lug'at boyligini oshirish, leksik kompetensiyasini mustahkamlashning samarali yo'llari yoritilgan. O'rganilayotgan til va ona tili o'rtasidagi salbiy ta'sirlarni (interferensiya) yengib o'tish hamda kuchli xorijiy til ko'nikmalarini yaratish shartlari ko'rsatib o'tilgan. Leksik ko'nikmalarni shakllantirishning yo'naltiruvchi-tayyorgarlik, stereotiplashtirish-vaziyatli va o'zgaruvchan vaziyatli bosqichlari ilmiy izchillikda ochib berilgan Maqola filologiya yo'nalishidagi talabalar, magistrantlar va amaliyotchi o'qituvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, u dars jarayonini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, pedagoglarning professional malakasini oshirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

KALIT SO'ZLAR

Innovatsion ta'lim, ingliz tili o'qituvchilari, leksik ko'nikmalar, pedagogik imkoniyatlar, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, professional rivojlanish.

Received: December 10, 2025**Accepted:** December 30, 2025**Available online:**
February 25, 2026

³⁰ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Ochilova N. Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik ko'nikmalarini rivojlanishning pedagogik imkoniyatlari. // Komparativistika (Comparative Studies). – 2026. – Vol.3, № 1(9) – B. 417-432.

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING LEXICAL SKILLS OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS IN THE CONTEXT OF INNOVATIVE EDUCATION

Ochilova Nilufar Nomazovna

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology,

Associate Professor

Samarkand, Uzbekistan

Email: nilufarochilova1983@icloud.com

<https://orcid.org/0009-0006-0044-3188>

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the pedagogical and psychological aspects of developing lexical skills in future English language teachers within a modern, innovative educational environment. It emphasizes the intrinsic connection between language and thought, interpreting lexical skill not merely as word selection and usage, but as an integral component of cognitive and speech processes. The article scientifically distinguishes between expressive (productive) and receptive lexical skills, elucidating their roles in verbal communication. Additionally, it examines the fundamental characteristics of lexical skills, such as automaticity, stability, and adaptability, highlighting their importance in the teaching process. The paper outlines effective strategies for expanding vocabulary and reinforcing lexical competence in future teachers through the utilization of modern information and communication technologies and interactive methods. It also addresses the conditions necessary for overcoming negative interference between the target language and the mother tongue, and for developing strong foreign language proficiency. The article systematically explores the stages of lexical skill formation, including the guiding-preparatory, stereotyping-situational, and variable-situational phases. Intended for philology students, postgraduates, and practicing teachers, this work serves as a valuable resource for organizing engaging and meaningful lessons and for enhancing the professional qualifications of educators.

KEY WORDS

Innovative education, English teachers, lexical skills, pedagogical opportunities, interactive methods, information-communication technologies, professional development.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Очилова Нилуфар Намазовна

Доктор философии (PhD) по филологии, доцент

Самаркандский государственный институт

иностранных языков

Самарканд, Узбекистан

Email: nilufarochilova1983@icloud.com

<https://orcid.org/0009-0006-0044-3188>

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется взаимосвязь феноменов постколониального подхода, маргинализма и некрополитики в узбекской литературе и их художественное выражение. В работе прослеживается влияния последствий колониального периода на социокультурную жизнь, нашедшее свое отражение в национальном литературном мышлении. Методологическую основу произведения составили теоретические взгляды Ашиля Мбембе, Эдварда Саида, Хоми Бхабха и Гаятри Спивак. В проведенном анализе центральное место занимает творчество Шерзода Комила Халила - в частности, его произведения «Лабиринт смерти», «Мы исчезнем», «Немые рыбы» и «Последнее поколение Адама». Результаты исследования показывают, что в этих произведениях художественно выражены социальная изоляция человека, чувство «инаковости» и подверженность политике смерти, ставшие результатом колониализма. Автор изображает личную и национальную маргинальность в контексте глобальной некрополитики. Он освещает судьбу народов, которые были этническими меньшинствами на территории бывших колоний и оказались различными способами «изолированы» перед лицом смерти. В заключение отмечается, что понятия постколониализма, маргинализма и некрополитики являются взаимодополняющими теоретическими направлениями, которые представляют новый научный подход к анализу отношений личности и власти, жизни и смерти, центра и периферии в узбекской литературе.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Постколониальный подход, некрополитика, маргинализм, ориентализм, инаковость, культурная ассимиляция, безгласные.

KIRISH

O'qitish jarayonida xorijiy til nafaqat o'rganish obyekti sifatida, balki fikr asbobi (instrumenti), xorijiy tilda olamni bilish, kognitiv/bilish mexanizmlarini rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat ham qiladi. Bu holat tilning tafakkur bilan chambarchas bog'liqligi (aloqadorligi) bilan shartlanadi. Til yordamida tafakkurning umumshlatiruvchi faoliyati, uning predmetlar/narsalarning ichki xossalarini bilib olish (aniqlash), o'rab turgan voqelikni bilish qobiliyati amalga oshiriladi. Til fikrlarni obyektivlashtiradi, ularni boshqa odamlar uchun bilish, tushunish, anglay olishga hozir qiladi, shuning uchun til insonning bilish faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Leksik ko'nikma xorijiy tilni o'qitish jarayonida nutq faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Olim Ye.I. Passovning fikriga ko'ra, leksik ko'nikma "ko'nikmaning ko'rsatkichlar parametrlarda amalga oshiriladigan va berilgan leksik birlikni nutqda vaziyatli qo'llashni ta'minlaydigan oldindan rejalashtirilgan g'oya va uni boshqalari (g'oyalar) bilan to'g'ri birlashtirishga tegishli/adekvat tarzda leksik birlikni tanlash bo'yicha sintez qilingan amalni" ifodalaydi (Passov, 139).

Kommunikatsiya (muloqot) – ikki tomonlama jarayon bo'lib, u nafaqat faol nutq faoliyatini, balki suhbatdosh nutqini idrok etishni ham taqozo etadi. Ma'lum bo'lyaptiki, leksik ko'nikmaning bunday ta'rifi uning mohiyatini to'liq ochib bermaydi.

E.G. Azimov va A.N. Shukin kabi olimlar bu yetishmovchilikni bartaraf qilishga urinishadi. Ular leksik ko'nikma deganda "leksik birlikni rejalashtirilgan g'oya va uni mahsuldor nutqda boshqa birliklar bilan to'g'ri birgalikda qo'llashga tegishlicha/adekvat bo'lgan tanlash bo'yicha avtomatlashtirilgan amal, reseptiv nutqda avtomatlashtirilgan idrok va mazmun, ma'no bilan assosiatsiyalashtirish" deb tushunishgan (Azimov, Shukin, 1999, 133).

Shu tariqa, eksperssiv (mahsuldor/unumli) va reseptiv leksik ko'nikmalar turlarini ajratib ko'rsatishadi. Nutqiy eksperssiv leksik ko'nikmalar deganda

“ogʻzaki va yozma nutqda muloqot vaziyatlari va muloqot maqsadlariga muvofiq ravishda soʻzlarni toʻgʻri qoʻllash va soʻzlarni toʻgʻri yasash koʻnikmalari” tushuniladi. Reseptiv leksik koʻnikmalar deganda “leksik hodisalarni eshitishda yoki oʻqishda (soʻzning strukturasi va uni qoʻllash) idrok qilishda tanish va tushunish koʻnikmalari” nazarda tutiladi (Shatilov,120).

ASOSIY QISM

Ekspressiv leksik koʻnikmalarga soʻzlash(gapirish) leksik koʻnikmasi va yozma nutq leksik koʻnikmasi, reseptiv leksik koʻnikmalar qatoriga esa tinglab tushunish leksik koʻnikmasi va oʻqish leksik mahorati kiradi.

Nutq qobiliyatining sharti va uning asosi sifatidagi amal qilish sharti boʻlishi uchun har qanday koʻnikma xususiyatlarning malaka uchun ham xos boʻlgan, biroq sifat jihatdan boshqa darajaga ega boʻlgan muayyan tizimiga ega boʻlishi kerak.

R.K, Minyar-Beloruhev, Ye.I. Passov, S.L. Rubinshteyn, S.F. Shatilov va boshqa olimlarning fikrlariga koʻra, avtomatlashtirilganlik, onglilik, barqarorlik, moslashuvchanlik, nisbatan murakkablik leksik koʻnikmaning ajralmas xususiyatlari hisoblanadi.

Avtomatlashtirilganlik maʼlum tezlik, ravonlik/silliqlik, tejankorlik (kuch, harakat, vaqtni kam sarflovchi), va amalning/harakatning taranglik jadalligining/darajasining pastligini nazarda tutadi. Avtomatlashtirilganlik “koʻnikmaning ong osti bilan, tez kechadigan, oʻzini mustaqil nazorat qilish doirasidan tashqarida qolgan amal qilishini” ifodalaydi. Bunda onglilik koʻnikmaning faqat shakllanish, shakllantirilish jarayonida kuzatiladi” (Kovalenko, 2003, 71).

Tinglab tushunish va oʻqish leksik koʻnikmasi uchun avtomatlashtirilganlik soʻzning nutqdagi maʼnosini yaxlit idrok etish va tez tushunishdan iborat. Soʻzlash leksik koʻnikmasi uchun avtomatlashtirilganlik soʻzni xotiradan tez chiqarib olish va uni toʻgʻri qoʻllashda namoyon boʻladi.

Koʻnikmaning shubhasiz xossasi boʻlgan holda, “onglilik” koʻnikma uchun faqat ichki jihatdan xos, chunki “tabiatan ongli boʻlish bilan koʻnikma amal qilish

jarayonida o'z ongliligini ochib bermaydi: u ong bilan ong osti orqali bog'liq" (Passov, 1989, 276). Onglilik xato ro'y berganda, talaba uni tuzatish maqsadida qoidaga murojaat qilganda kuzatiladi. Bu ko'nikmani shakllantirishda va amal qilishda onglilik komponentning mavjudligini ko'rsatadi. Bu xususiyat tufayli ko'nikma talabalarning diqqatini oraliq operatsiyalarni nazorat qilish zaruriyatidan ozod qiladi.

Olim A.N. Leontyev agar ko'nikma "amalni predmet sharoitlariga moslashtirish yoki oddiy taqlid qilish, ya'ni puxta o'ylab tushunmasdan" shakllantirilgan bo'lsa, uning ongli nazorat qilishning imkoni bo'lmasligiga e'tibor qaratadi (Leontyev, 12). Shuning uchun, kelajakda nazorat qilishning imkoni bo'lishi uchun ko'nikmani ongli maqsadga yo'naltirilgan amal/harakat asosida shakllantirish zarur.

Tadqiqot natijalari. Ko'nikmaning barqarorligi "uni shakllantirish va boshqa ko'nikmalar bilan o'zaro faoliyati jarayonida har xil turdagi ta'sirlar ostida o'zgarmaslik, barqarorlik" sifatida namoyon bo'ladi (Kovalenko, 2003, 71). Ushbu xususiyati tufayli shakllantirilgan leksik ko'nikma har xil turdagi salbiy ta'sir tufayli buzilmaydi.

Ko'nikmaning yangi vaziyatda yoki yangi nutq materialida amal qila olishi (qobiliyati) uning moslashuvchanlik kabi sifati mavjudligidan dalolat beradi. Moslashuvchanlik tufayli operatsiyalarni amalga oshirish uchun o'zlashtirilgan tamoyillar yangi faoliyat yoki vaziyatga o'tkazish amalga oshadi. Reseptiv tabiatdagi leksik ko'nikmalar uchun moslashuvchanlik turli kontekstlarda yangi so'zlarni tez taniy olishni (tanib, tushunishni) anglatadi. So'zlash leksik ko'nikmasi uchun moslashuvchanlik leksik materialdan yangi muloqot vaziyatlarida foydalana olish, yangi kommunikativ vazifalarni bajara olishdan iborat.

Ko'nikmani (boshqa vazifani bajarishga) to'g'ri o'tkazish yangi faoliyat turlarini va noma'lum vazifalarni o'ta xatosiz va ancha tezroq o'zlashtirish va bajarish imkonini beradi. Agar o'tkazish noto'g'ri bo'lsa, interferensiya (xalal berish, xalaqit berish) kabi sodir bo'ladi. U operatsiyalar yoki amallarni

bajarishning ilgari shakllangan topshiriq lari tashqi o'xshash, lekin bajarish usullari jihatidan o'zgacha operatsiyalarga o'tkazilishi bilan ifodalanadi va bu xatoliklarni keltirib chiqaradi.

Olim S.F. Shatilovning fikricha, "interferensiyaga qarshi tura oladigan kuchli xorijiy til ko'nikmalarining yaratilishi" ona tili ko'nikmalarining xorijiy til ko'nikmalariga xalal berishi/interferensiya qilishini yengib o'tishda asosiy omil hisoblanadi (Shatilov, 28).

Olima I.A. Zimnyaya puxta, mustahkam ko'nikmani shakllantirish uchun quyidagi zarur shart-sharoitlarni ko'rsatadi:

- a) maqsadga yo'naltirilganlik;
- b) ichki motivatsiya va tashqi ustanovkaning mavjudligi;
- v) ta'lim jarayonida mashqlarning to'g'ri taqsimlanganligi;
- g) mashq qilinayotgan hodisani puxta o'ylangan/tushunilgan nutq vaziyatiga kiritish;
- d) tahsil oluvchi uchun amalni bajarishning natijalarini doim bilishning zarurligi;
- e) amalning/harakatning umumiy tamoyilini, trenirovka qilinayotgan (mashq qilinayotgan) operatsiya kiritilgan harakat sxemasini tushunish;
- j) ilgari yaratilgan/tarbiyalangan ko'nikmalarning ko'chirilishi va interferensiyasini hisobga olish (Zimnyaya, 1991).

Ko'nikmalarni ongli ravishda shakllantirish, amallarni/harakatlarni bajarish yoki shu kabi vazifalarni yechish jarayonidagi farqlarni aniqlash ham interferensiyaning oldini olishga yordam beradi. Shu sababli moslashuvchanlikni shakllantirish "avtomatlashtirilganlik va barqarorlikni yaratish jarayonida" sodir bo'ladi (Passov, 1999, 39).

Ko'nikmaning nisbiy murakkabligi shundaki, u kichik sodda harakatlardan iborat bo'lishi yoki murakkabroq ko'nikma tarkibiga kiritilgan bo'lishi mumkin.

Ko'nikmaning sayqallanganligi, to'la shakllantirilganligini tashqi va ichki mezonlarini ajratib ko'rsatishadi. Tashqi mezonlarga quyidagilar kiradi: a) to'g'rilik

(xatolarning yoʻqligi); b) sifatlilik (yaʼni mustahkamlik/puxtalik, barqarorlik, moslashuvchanlik, “onglilik”); v) alohida operatsiyalarni bajarishning tezligi yoki ularning ketma-ketligi.

Ichki mezonlar deganda: a) amal, harakatni bajarish shakliga yoʻnaltirilgan anglaganlikning yoʻqligi; b) taranglilik va tez zoʻriqishning yoʻqligi; v) oraliq operatsiyalarning tushirib qoldirilishi, yaʼni amal/harakatlarning qisqartirilganligi tushuniladi (Zimnaya, 2002, 247).

Olim S.F. Shatilov leksik koʻnikmani shakllantirish jarayonida uchta ketma-ket bosqichni ajratadi:

1) Yoʻnaltiruvchi-tayyorgarlik bosqichi. Bu yangi soʻzni kiritish, semantizatsiyasi va birlamchi takror ishlab chiqarish bosqichidir. Ushbu bosqichda yangi soʻzning talabalarning avvalgi bilimlari, ularda mavjud nutq tajribasi bilan imkoni boricha koʻp mantiqiy va assosiativ aloqalarini aktuallashtirish/dolzarlashtirish/yangilash zarur. Bu yangi leksik birliklarni allaqachon oʻzlashtirilgan/oʻrnashgan semantik strukturalar va bu bilan yangi stereotiplarni tezroq ishlab chiqarish/shakllantirish imkonini beradi.

2) Stereotiplashtirish-vaziyatli bosqich. Bir xil/turli nutq vaziyatlarida berilgan doirada situativ/vaziyatli tayyorlash va mustahkam/puxta leksik aloqalarni yaratish bosqichi. Ushbu bosqichda nutq amalining doimiy komponentlarining avtomatlashuvchi sodir boʻladi. Faoliyatning refleksiv komponenti, faoliyat komponenti, bosqichning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi, va u tufayli avtomatlashtirilganlik ongli asosda shakllanadi.

3) Oʻzgaruvchan situativ/vaziyat bosqich. Dinamik leksik aloqalarni yaratish bosqichi, yaʼni tanish/maʼlum leksik elementlarni berilgan doiralarda turli kontekstlarda yangicha birlashtirish. Ushbu bosqichning maqsadi koʻnikmaning avtomatlashtirilganligi va moslashuvchanligini shakllantirishni davom ettirishdan iborat (Shatilov, 1986).

Kognitiv yondashuvda, leksik koʻnikmalarni shakllantirish intellektual/aqliy koʻnikmalarni shakllantirish bilan birga amalga oshadi.

Intellectual/aqliy ko'nikma "avval uchragan vazifani yechishning avtomatlashtirilgan topshiriq i, usulini" ifodalaydi (Qisqa psixologik lug'at/Kratkiy psixologicheskiy slovar, 2001, 195).

Intellectual leksik ko'nikmalarning ikki turini ajratib ko'rsatishadi: 1) leksik bilimlarni egallash ko'nikmalari; 2) leksik bilimlarni qo'llash ko'nikmalari (Velichkovskiy, 1999), (Solso, 1996), (Shamov, 2005).

Intellectual ko'nikmalar leksik material bilan turli amallarni muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlaydi (leksik birliklarni tanish, taqqoslash, differentsiatsiya qilish/farqlash, ularni xotirada saqlab olish, ularning ma'nosini anglash, xorijiy til so'z komponentlarini egallaganlik, leksik materialni unumli va reseptiv birlashtirish/kombinatsiya qilish, uni ijodiy tarzda qo'llash) (Shamov, 2000, 54).

Leksik birlikni egallaganlik talabani uni idrok qilish va undan faol foydalana olish qobiliyatini nazarda tutadi. Bu esa reseptiv va ekspressiv leksik ko'nikmalar orasida juda yaqin o'zaro aloqadorlikni ko'rsatadi. Bu o'zaro aloqadorlikni leksik ko'nikmaning ma'lum bir strukturasi mavjudligi tufayli kuzatish mumkin.

Leksik ko'nikmaning har bir turini alohida-alohida batafsil ko'rib chiqqandan keyin, ularning o'xshashlik va spesifikasini/o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qilamiz

Tinglab tushunishning leksik ko'nikmasi "tinglovchining psixologik mexanizmlarining leksik birlikka teng tashqi nutq signali bilan, va uzoq muddatli xotirada saqlanadigan ichki obraz - etalon bilan o'zaro faoliyati ta'siriga asoslangan dinamik tizimni ifodalaydi" (Bazina, 1997, 38).

Tinglab tushunish leksik ko'nikmasining strukturasi quyidagi operatsiyalar farqlanadi:

- a) xorijiy til so'zini ovoz/tovush kontekstida eshitish bilan idrok qilish;
- b) idrok qilingan so'zni etalon obraz bilan taqqoslash;
- v) so'zning dastlabki shaklini aniqlash;

g) soʻzning strukturasini aniqlash va uning maʼnosini (kontekst taxmini) chiqarish/tuzish;

d) soʻzning grammatik kategoriyalarini aniqlash;

e) soʻzning idrok qilingan ovoz/tovush obrazini uning maʼnosi bilan taqqoslash;

j) soʻz birikmasi yoki ibora tarkibidagi keyingi soʻzni oldindan sezish/payqash (tushunish);

z) talaffuz qilinishi va shakli oʻxshash soʻzlarni bir biridan farqlash;

i) omonim, sinonim va antonim hodisalarni bir biridan farqlash;

k) soʻzning kontekstdagi maʼnosini aniqlash (Shamov, 2000, 28).

Olima M.P. Bazina strukturasiga koʻra tinglab tushunish leksik koʻnikmasini grammatik va prosodik belgilar/xususiyatlarni idrok etish koʻnikmasiga qaraganda murakkabroq ekanligini koʻrsatadi. Buning sababi shundaki, nutqning tovush tomonini ong ostida idrok qilmasdan va grammatik xususiyatlarni ularning mos maʼnolari bilan bogʻlamasdan “shakl - leksik maʼno” aloqasini oʻrnatishning imkoni yoʻq (Bazina, 1987).

Soʻzlash leksik nutqiy koʻnikmasi deganda “ogʻzaki nutqda muloqot/kommunikatsiya vaziyatlari va maqsadlariga muvofiq ravishda intuitiv tarzda soʻzni toʻgʻri qoʻllash va b.

Soʻzlash leksik koʻnikmasi tarkibiga quyidagi operatsiyalarni avtomatik oʻzlashtirganlik kiradi:

a) leksik birlikni xotirada aktuallashtirish;

b) soʻzning tovush obrazini etalon namunasi asosida tashqi nutqda qayta takrorlash/qoʻllash/ishlab chiqarish;

v) soʻzning tegishli grammatik shaklini tanlash;

g) leksik va grammatik valentlikni hisobga olgan holda bu soʻzni boshqa soʻzlar bilan birga qoʻllash/bogʻlash;

d) soʻzni nutq namunasiga qoʻshish;

e) soʻzni minimal (eng kichik) bayonga kiritish (Shamov, 2000).

Bir tomondan, soʻzlash leksik koʻnikmasi barcha jihat/aspekt koʻnikmalar orasida eng onglisi hisoblanadi. Ushbu koʻnikmadan, avvalo bayonning mazmun tomoni bogʻliq boʻladi. Boshqa tomondan esa, “soʻzlash leksik koʻnikmasining alohida olingan operatsiyalari alohida eʼtibor talab qilmaydi, balki kompleks tarzda (shaklda) amalga oshiriladi” (Dogonadze, 1993,10). Til va vaziyatli mos kelishlik, moslashuvchanlik soʻzlash leksik koʻnikmasining asosiy xususiyatlari hisoblanadi.

Oʻqish (oʻqib tushunish) leksik koʻnikmasini “oʻqish jarayonida leksik birliklarni idrok etish, tanish va tushunish boʻyicha amalni koʻnikma koʻrsatkichlarida/parametrlarida sintezlashgan tarzda bajarish qobiliyati” deb qarash mumkin (Raxman, 1994, 4).

Oʻqish leksik koʻnikmasining strukturasiga quyidagi operatsiyalar kiradi: a) koʻrish/ vizual kontekstida xorijiy til soʻzini koʻrish/vizual tarzda idrok etish; b) koʻrish/vizual namunani/obrazini etalon namuna bilan taqqoslash; v) soʻzni tushunish qiyin boʻlgan holatda regressiya; g) koʻrish/vizual kontekstda idrok etilgan soʻzning boshlangʻich shaklini aniqlash; d) soʻzning strukturasini uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish asosida aniqlash (kontekstli taxmin); ye) soʻzning grammatik kategoriyalarini aniqlash; j) soʻzning idrok etilgan koʻrish/vizual obrazini uning mazmuni/maʼnosi bilan taqqoslash; z) soʻz birikmasi yoki ibora tarkibidagi keyingi keladigan soʻzni oldindan sezish/bilish; i) talaffuz qilinishi va shakli oʻxshash soʻzlarni farqlash; k) omonim, sinonim vaantonim hodisalarni farqlay olish; l) kontekstda soʻzning kontekstdagi maʼnosini aniqlash (Shamov, 2000, 28).

Avtomatlashtirilganlik, moslashuvchanlik va barqarorlik oʻqish leksik koʻnikmasining asosiy xususiyatlaridir. Oʻqish leksik koʻnikmasi boshqa barcha turdagi koʻnikmalar orasida eng barqarori hisoblanadi. Uni ishlab chiqilganlik/sayqallashtirilganlik/oʻrnatilganlik mezonlari quyidagilar: a) oʻqishning tezligi; b) oʻqib tushunish darajasi va koʻlami/hajmi; v) notanish soʻzning maʼnosini fahmlay olish/taxmin qilish malakasi (Raxman, 1994).

Nutq faoliyatining turli xil leksik koʻnikmalari operatsiyalarining strukturasini

ko‘rib chiqqandan keyin, o‘qish leksik ko‘nikmasi va tinglab tushunish leksik ko‘nikmasi: idrok, taqqoslash, idrok qilingan obrazni ma’no bilan taqqoslash/bog‘lash, o‘xshash obrazlarni shaklga ko‘ra farqlash, so‘zning kontekstdagi ma’nosini aniqlash kabi umumiy (mushtarak) operatsiyalarni o‘z ichiga oladi deb qayd qilish mumkin. Biroq, bu operatsiyalar to‘laligicha/butunlay bir xil emas. Tinglab tushunish leksik ko‘nikmasi va o‘qish leksik ko‘nikmasi xorijiy tildagi so‘z taqdim etilgan/keltirilgan kodda farqlanadi. Bu ushbu operatsiyalarning xarakteri/tabiatiga, ularni amalga oshirish tezligiga ta’sir qiladi.

Reseptiv va unumli/mahsuldor leksik ko‘nikmalar o‘z operatsiyalariga ko‘ra farqlanadi. Buning sababi ular nutq bayonining turli tomonlariga (idrok qilish va hosil qilish/ishlab chiqarishga) qaratilgan.

Nutqiy faoliyatning har xil turlarining leksik ko‘nikmalarining aniqlangan umumiyliги (mushtarakligi) operatsiyalar va amallarni bajarishning o‘xshash usullarini o‘tkazish (ko‘chirish) imkoniyatini va binobarin, xorijiy tilni o‘qitish jarayonida ularni o‘zaro bog‘liq ravishda shakllantirish zarurligidan dalolat beradi. Bunday yondashuv yanada mustahkam/puxta, barqaror, moslashuvchan va ongli leksik ko‘nikmalarni shakllantirishga erishish imkonini beradi. Bunda leksik ko‘nikmalarni faqat bir-biri bilan o‘zaro faoliyat/ta’sirda emas, balki grammatik va fonetik ko‘nikmalar bilan o‘zaro faoliyat/ta’sirni hisobga olib ham shakllantirish lozimligini hisobga olish zarur. Leksikani o‘tilgan va mustahkamlashtirilgan grammatik materialda/asosida tushuntirilishi zarur, eshitish-talaffuz va ritmik-ohang/intonatsiya ko‘nikmalarini esa leksik materialning ma’lum dozasi ustida ishlash jarayonida mustahkamlanishi va takomillashtirilishi lozim.

Leksik ko‘nikmalar ustida ishlarni ularning o‘zaro aloqadorligida amalga oshirishda, ko‘nikmalarni nutq faoliyatining bir turidan boshqasiga ko‘chirish faqat ushbu jarayonni qat’iy boshqarish sharoitidagina mumkin bo‘lishini ham hisobga olish zarur.

Olim N.I. Berishvili ko‘chirish mexanizmini shakllantirishning muvaffaqiyati

uning tabiati va jadalligini/intensivligini belgilaydigan quyidagi omillarning mavjudligiga bogʻliq deb hisoblaydi:

a) faoliyat obyektiga aloqador omillar: talabalar egallagan va yangi yaratilayotgan amallarning oʻxshashlik darajasi; amal/harakatlarning shakllanganlik darajasi va boshq.; b) amallarni bajarish shart-sharoitlariga bogʻliq omillar: amallarni bajarishning stereotipikligi va muntazamliligi; ishlash sharoitlarining variativligi/oʻzgaruvchanligi; mashqlarning xarakteri va boshq.; v) faoliyat subyekti bilan bogʻliq omillar: individual psixik jarayonlarning sifati; tahsil oluvchilarning ijtimoiy maqomi va yoshi (Berishvili, 1984, 8).

S. F. Shatilov moslashuvchan koʻnikmalarni shakllantirish va koʻchirish/uzatish uchun zarur quyidagi omillarni koʻrsatadi: a) til hodisasini qoʻllashning tashqi va ichki jihatdan oʻxshash, ammo variativ/oʻzgaruvchan, analogiyaga koʻra shakllantirilayotgan stereotipni buzmaydigan doirada (chegarada) sharoitlar (vaziyatlar) yaratish; b) oʻrganilayotgan hodisaning ushbu xorijiy tilning boshqa til hodisalari bilan yoki ona tilining mos keladigan/tegishli hodisasi bilan oʻxshashlik darajasini bilish. shuningdek nutq operatsiyalarini bitta til doirasida yoki bir tildan boshqa tilga koʻchirish chegaralarini, yaʼni qarama qarshi qoʻyish yoʻli bilan oʻxshash hodisalarda mos kelmasliklarning tabiatini tushunish (Shatilov, 1996, 27).

Muloqot jarayonida nutqiy koʻnikmalarning komponentlari sifatida leksik koʻnikmalar muloqot qilish/kommunikativ vazifalarni bajarishda nutq-fikrlash operatsiyalari va amallarni bajarish sifatiga taʼsir qiladi. Shakllangan leksik koʻnikmalarning yetarlicha yuqori darajasi, ularning nutq faoliyatining bir turidan ikkinchisiga muvaffaqiyatli koʻchirilishi talabalar diqqatini umuman nutqiy faoliyat natijasiga qaratish, alohida operatsiyalarni nazorat qilishga chalgʻimasdan kommunikatsiya/muloqot muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi.

Olima I.A. Zimnyaya nutq faqat koʻnikmalar bilan cheklanmaydi, chunki u “ijodiy, ikkilamchi malakani” ifodalaydi deb taʼkidlaydi (Zimnaya, 1991, 210). Demak, olimaning fikriga koʻra, nutq malakalari nutqning muhim komponentidir.

Malaka deganda, “olingan bilimlar va ko‘nikmalar majmui bilan ta’minlanadigan, subyekt tomonidan o‘zlashtirilgan amalni bajarish usuli” tushuniladi. “Malaka mashqlar orqali shakllantiriladi va amallarni nafaqat tanish/odatiy, balki o‘zgargan sharoitlarda ham bajarish imkoniyatini yaratadi” “Qisqacha psixologik lug‘at/Kratkiy psixologicheskiy slovar, 1995, 365).

XULOSA

Nutq faoliyatining turli xil turlarining o‘zaro aloqador leksik ko‘nikma va malakalarini shakllantirish ularni og‘zaki va yozma nutqqa kiritishning yuqori darajada moslashuvchanligi va operasion tayyorligiga erishish va natijada talabalarning kommunikativ/muloqot imkoniyatlarini oshirish imkonini beradi.

Barqaror leksik ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning muvaffaqiyati bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, bu leksik-semantik axborotni tashkil qilish usulidir. Taklif qilinayotgan usul leksik materialni turli ko‘rsatkichlar/parametrlar bo‘yicha tartibga solish, tizimlashtirish va kategoriyazatsiyalashtirish/turkumlash tamoyillariga asoslangan bo‘lib, bu uni chuqurroq tushunish va o‘zlashtirishga yordam beradi.

Innovatsion ta’lim sharoitida ingliz tili o‘qituvchilarining leksik ko‘nikmalarini rivojlantirish pedagogik jarayonning muhim qismidir. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari, interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida o‘qituvchilarning lug‘at boyligi sezilarli ravishda oshiriladi. Bu esa nafaqat ularning professional malakasini kuchaytiradi, balki ta’lim sifatini ham yaxshilashga imkon yaratadi. Leksik ko‘nikmalarni mustahkamlash orqali o‘qituvchilar talabalar bilan samarali muloqot qura oladilar, dars jarayonini qiziqarli va mazmunli tarzda tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu sababli, innovatsion usullarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish o‘qituvchilarning ijodkorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu yondashuv talabalar o‘rtasida til ko‘nikmalarining yanada mustahkamlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion ta’lim sharoitida leksik ko‘nikmalarni

rivojlantirish pedagoglarning kasbiy rivojlanishida va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Pedagoglarga zamonaviy vositalardan samarali foydalanish imkoniyatlari taqdim etilishi ta'lim sifatining yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. 5th ed. – Pearson Education, 2007. – 410 p.
2. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. 5th ed. – Harlow: Pearson Education Limited, 2015. – 446 p.
3. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 p.
4. Nation I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013. – 546 p.
5. Thornbury S. How to Teach Vocabulary. – Harlow: Pearson Education, 2002. – 185 p.
6. Celce-Murcia M. Teaching English as a Second or Foreign Language. 3rd ed. – Boston: Heinle & Heinle, 2001. – 584 p.
7. Larsen-Freeman D., Anderson M. Techniques and Principles in Language Teaching. 3rd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 272 p.
8. Schmitt N. Instructed second language vocabulary learning // Language Teaching Research. – 2008. – Vol. 12, No. 3. – P. 329-363.
9. Applied Linguistics and Materials Development / ed. by B. Tomlinson. – London: Bloomsbury Academic, 2013. – 352 p.
10. Oxford R. L. Language learning styles and strategies: An overview // Learning Styles & Strategies. – 2003. – P. 1-25.

REFERENCE

1. Brown, H. D. (2007). Principles of language learning and teaching (5th ed.). Pearson Education.

2. Harmer, J. (2015). *The practice of English language teaching* (5th ed.). Pearson Education Limited.
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
4. Nation, I. S. P. (2013). *Learning vocabulary in another language* (2nd ed.). Cambridge University Press.
5. Thornbury, S. (2002). *How to teach vocabulary*. Pearson Education.
6. Celce-Murcia, M. (2001). *Teaching English as a second or foreign language* (3rd ed.). Heinle & Heinle.
7. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). *Techniques and principles in language teaching* (3rd ed.). Oxford University Press.
8. Schmitt, N. (2008). Review article: Instructed second language vocabulary learning. *Language Teaching Research*, 12(3), 329–363.
9. Tomlinson, B. (Ed.). (2013). *Applied linguistics and materials development*. Bloomsbury Academic.
10. Oxford, R. L. (2003). *Language learning styles and strategies: An overview*. *Learning Styles & Strategies*. Retrieved from